



«O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI»

AKSIYADORLIK JAMIYATI

«O'ZBEKISTON» LOKOMOTIV DEPOSI

BUYRUQ

2023y. «04» yanvar

Nº 5

“Elektr energiyani tejash undan
unumli foydalanish, sarflangan
elektr energiyani hisobotini
aniq olib borish to‘g‘risida”

“O‘zbekiston” lokomotiv deposida elektr energiyadan unumli va samarali foydalanish, shuningdek hisobtlarning aniq olib borilishini mukammallashtirish maqsadida, buyuraman.

1. 2023 yil davomida elektr energiya sarfini nazorat qilish va undan oqilona foydalanishi bo‘yicha quyidagi hodimlardan komissiya a’zolari tayinlansin:

Komissiya raisi:

TCHG – Q.A. Xodiyev.

A’zolari:

TCHZR – E.G‘. Omonqulov,
Y.O. Xasanov

TCHZE – A.A. Baltabayev,

TCHF – R. Ergashev,

TCHGE – X.B. Ramazanov,

TCHT – A.O‘. Sadikov,

TCHTER – F.F. Fozilov,

TCHE – F.Z. Ibragimov,

OTZ – S. Nematillayev;

2. TCHZR, TCHM TR-1, TCHM KIP raxbarlari va sex ustalariga:

- elektr harakat tarkibini (elektrovoz, elektropoezd) depoga ta‘mir uchun kirgan vaqtida elektr hisoblagich va tok transformatorlari bo‘yicha lokomotiv brigadasi yoki TCHMI tomonidan kamchiliklar yuzasidan bildirgi yoki dalolatnoma yozilgan bo‘lsa ushbu kamchiliklarni doimiy ravishda bartaraf etilishi ta‘minlansin.

3. TCHM F. Ummatovga: ta‘mir uchun depo xududiga kirgan elektrovozlarning elektr hisoblagichlari xolatini doimiy tekshirish borish va soz xolda ishlashini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

4. TCHMI teplotexnik Ye.V. Reminyukga:

- xar oyda belgilangan hududlarda elektrovozlarning poezdlarni tortishga sarf qilinadigan elektr energiya me’yorlarini tahlil qilib, o‘rnatilgan me’yor bo‘yicha sarflari ko‘rib chiqilsin;

- xar oy liniyadagi lokomotivlarning elektr energiya hisoblagichlari va GPS moslamalari sozligi tekshirilsin;

- poezdlarni tortishga sarf qilinadigan elektr energiyasini o'rnatilgan me'yordan ortiq sarf qilayotgan mashinistlar bilan nazorat yurishlariga chiqishi va xronometraj ishlарini doimiy ravishda olib borishi yuklatilsin.

5. Barcha mashinist murabbiylariga:

- o'ziga biriktirilgan kolonnadagi mashinistlar bilan texnik mashg'ulotlarda, kolonna yig'ilishlarida, xarakat xavfsizligi kunida elektr energiyasini tejab ishlatish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borish;

- xar oyda belgilangan hududlarda elektrovozlarning elektr energiya me'yorlarini tahlil qilish va o'rnatilgan me'yor bo'yicha sarfini ko'rib chiqish;

- xar oy xarakatdagi lokomotivlarning elektr hisoblagich moslamalarini sozligini tekshirib borish kamchiliklar aniqlansa ta'mir ishlari bo'yicha boshliq o'rnbosari yoki sex ustasiga xabar berish;

- elektr energiyasini o'rnatilgan me'yordan doimiy ravishda ortiq sarf qilgan mashinitlar bilan alohida nazorat yurishlariga chiqishi va xronometraj ishlari olib boorish hamda tahlil qilish vaziflari yuklatilsin.

6. TCHZE A.A. Baltabayev va TCHMI Sh.X. Valiyevlarga:

- elektrovozlarda sarflanayotgan elektr energiyasi xarajatlarini "O'zbekiston temir yo'llari" AJ raxbaryati tomonidan tasdiqlangan me'yordan oshmasligi va mashinistlarning poezdkalaridagi elektr energiya sarfi belgilangan me'yordan ortmasligini doimiy nazoratga olish.

- xar chorak yakuni bo'yicha poezdlarni tortishda elektr energiya sarfi limitdan ortish xolatlari kuzatilsa tahlillar olib borilib asoslangan xisob-kitoblarni tayyorlanishi va qo'shimcha limit olish yuzasidan tegishli boshqarmalarga murojaat qilinishini shaxsan nazoratga olish vazifalari yuklatilsin.

7. Elektrovoz va elektropoezdlar mashinistlari quyidagilarga amal qilishlari shart:

- poezdlarni tortishda elektr energiyasidan oqilona foydalanish;

- elektrovoz va elektropoezdlarga o'rnatilgan elektr hisoblagichlar va GPS qurilmalariga shikast yetkazmaslik, agar ushbu qurilmalarda kamchilik aniqlansa zudlik bilan machinist murabbiysi va depodagi tegishli mas'ul hodimlarga xabar berish;

8. YoER bo'limi muhandisi A.D. Maslanovga:

- xar oyning 1 chi sanasida tortuv nim stansiyalarida joylashgan elektr hisoblagichlarining ko'rsatgichlarini tekshirish va ECH hodimlari bilan birlgilikda tegishli dalolatnomalar rasmiylashtirish;

- xar oyning 10 sanasiga qadar xar bir elektr ta'minoti korxonalaridan hisob varaqalarini olish va ushbu hisob varaqalaridagi elektr energiya sarflari to'g'ri hisoblanganini tahlil qilish vazifalari yuklatilsin.

9. TCHGE X.B. Ramazonovga:

- korxonada sarf qilinayotgan elektr energiyasini sexlar, filiallar bo'yicha belgilangan me'yordan ortiq va samarasiz ishlatilmasligini nazorat qilish;

- korxonada sarflanayotgan elektr energiyasi xarajatlarini "O'zbekiston temir yo'llari" AJ raxbaryati tomonidan tasdiqlangan me'yordan oshmasligi ta'minlash;

- xar chorak yakuni bo'yicha elektr energiya sarfi limitdan ortish xolatlari kuzatilsa tahlillar olib borilib asoslangan xisob-kitoblarni tayyorlanishi va qo'shimcha limit olish yuzasidan tegishli boshqarmalarga murojaat qilinishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

10. TCHF R.Ergashev zimmasiga oyma-oy meyordan ortiq sarflangan va meyorga nisbatan iqtisod qilingan elektr energiyasi uchun elektrovoz mashinistlaridan,


“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan tasdiqlangan NIZOM asosida rag‘barlantirish yoki keltirilgan zararni qoplash yuklatilsin.

11. Ushbu buyruqda nomlari keltirib o‘tilgan xodimlarning egallab turgan lavozimi o‘zgarsa, mehnat ta‘tilida yoki kasallik vaqtida uning o‘rniga tayinlangan xodimlar belgilangan bandlardagi talablarni bajaradilar.

12. TCHDM O‘. Mamarajapovga ushbu buyruq bilan barcha tegishli hodimlarni tanishtirish vazifasi yuklatilsin.

13. Ushbu buyruqda talab qilingan vazifalarni bajarilishini nazorat qilish bosh muhandis Q.A. Xodiyev zimmasiga yuklatilsin.

**“O‘zbekiston” lokomotiv
deposi boshlig‘i.**



F.E. Maxamatov